



TA'LIM MUASSALARIDA STEAM TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA O'QUV-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH

Qo'ldosheva Munavvar

*Buxoro viloyati Vobkent tumani 1-son kasb-hunar maktabi
matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada STEAMda ta'lim tizimi nima va uning vazifalari nima, ta'lim jarayonlarida tadbiiq etish haqida ma'lumot beriladi. Davomida esa dastlabki STEAM tizimining joriy etish yuzasidan fikr bildirilgan.

Abstract: This article provides information on what is the education system in STEAM and what are its functions, its implementation in preschool education. During the meeting, opinions were expressed on the introduction of the first STEAM system.

Kalit so'zlar: STEAM ta'lim tizimi, ta'lim berish, fan, texnologiya, muhandislik, ilm-fan, ta'lim, matematika, san'at.

Keywords: STEAM education system, education, science, technology, engineering, science, education, mathematics, art

Bugungi kunda bolalar juda zehni va aqlli. Ular yangi davr texnologiyalari bilan ulg'aymoqda. Ularni bilimli qilish, bilim olishga qiziqtirish zamon talabi. Ta'lim berishda noan'anaviy usullardan foydalanmoqda. Bulardan biri STEAM ta'lim tizimi hisoblanadi: bunda bolalar o'nlab fan va darsliklarni maxsus fan qilib o'qishmaydi. STEAM qisqartmasini yoysak quyidagilarni bilib olamiz: STEAM bu S- science, T- technology, E- engineering, A- art va M- math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ta'limda ushbu yangi yondashuv, nazariya va amaliyotning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqarilgan ba'zi maktablarning bitiruvchilarining martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda vujudga keladi. Keyinchalik bu yerga san'at qo'shiladi va STEAM oxirigacha shakllanadi. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi- Massachusetts Texnologiya instituti, ushbu dunyo universitetining shiori "mens et manus" (aql va qo'l). Massachusetts Texnologiya institutining bolalariga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi. Hattoki ba'zi ta'lim muassalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi.

Bolalar bizning kelajagimiz hisoblanadi. Ularning yoshligidan ilmga chanqoq, qiziquvchan, hayotda o'z o'rnini topa oladigan, komil inson qilib tarbiyalashda ta'lim jarayonlari muhim rol o'ynaydi. Ta'lim olish- inson hayotining eng muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Maktab ta'lim sohasini rivojlantirish innovatsion texnologiya modullarini ishlab chiqish o'quvchilarni sog'lom turmush tarzini



yuritishni o'rgatish, sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, badiiy estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirishda STEAM texnologiyasini qo'llash bolaning kelgusida muvaffaqiyatini namoyon qilishda asos etib belgilangan. Har bir o'quv mashg'ulotida tarbiyachilar ta'lim berishning turli usullaridan foydalanishlari va kreativ yondashishlari kerak. Bolani mashg'ulotga nisbatan qiziqishini uyg'otish uchun turli xil rag'batlantirish usullaridan foydalanish kerak. O'quvchini rag'batlantirish uning ruhiyati ko'taradi, o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi. Har kungi darsda o'qituvchi guruhda 25 ta o'quvchi bo'lsa kamida 15 tasini rag'batlantirishi o'quvchining mashg'ulotga bo'lgan diqqatini va qiziqishini oshiradi, har kun rag'bat olishni xoxlaydi, bir biriga qarab intiladi.

Xulosa qilib, aytganda o'quvchilarni yoshi, qiziqishi va yashash joyiga qarab har xil usul va mashg'ulotlarni tanlash kerak. Bu holda o'qtichi va murabbiylar to'g'ri o'qitish maslahatlarini tanlashda katta rol o'ynaydi, chunki o'qtuvchilar bolalarni yaxshiroq hayotiy pozitsiyaga olib kelish mumkin. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab ta'lim tizimlarida o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. STEAM ta'lim tizimi yangicha metoda va ishlarmalarga boy bo'lgan tizim. Bu tizim bilan bolalarni texnologiyalar bilan hamnafas holatda tarbiyalaymiz. Bugungi kunda hamma yosh avlod texnologiyalarga qiziqadi. Demak, bu tizimni qiziquvchanlik bilan o'rganishadi. STEAM farzandlarimizga – ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tatqiqodlar olib borish, texnologiyalarni shakllantirish, muhandis sifatida lohiyalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o'yin orqali yuzaga keltiradi.

References:

1. "What is the STEAM education system?" [https // www.interger.uz / steam](https://www.interger.uz/steam)
2. "STEAM education for english learners" [https // exclusive.multibriefs.com / content / steam-education-for-english-learners / education](https://exclusive.multibriefs.com/content/steam-education-for-english-learners/education)
3. "English teachers: how can you use STEAM in your classroom by Jennifer Gunn" <https://resilienteducator.com/classroom-resources/steam-lesson-english-classroom/>
4. Foydaniilgan adabiyotlar.
5. "STEAM ta'lim tizimi nima?" [https//www.interger.uz/steam](https://www.interger.uz/steam)
6. "STEAM education for english learners" [https//exclusive.multibriefs.com/content/steam-education-for-english-learners/education](https://exclusive.multibriefs.com/content/steam-education-for-english-learners/education)
7. "English teachers: how you can use STEAM in your classroom by Jennifer Gunn" <https://resilienteducator.com/classroom-resources/steam-lesson-english-classroom/>